

1-TOPSHIRIQ – TAQDIMOT YARATISH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR

Talaba nazariy va amaliy bilimlarin urlashtirishi uchun mazkur fandan taqdimot ishini bajarish talab etiladi. O‘qituvchi tomonidan taqdimot mavzulari talabaga qur‘a tashlash yo‘li orqali biriktirib beriladi.

Taqdimot ishini bajarish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Taqdimot mavzusi avvaldan darslarda o‘tilgan Blum taksonomiyasi asosida yoritiladi.
2. Talabalar tartib raqami bo‘yicha mavzularni tanlaydilar.
3. Taqdimot uchun tanlangan matnga Blum taksonomiyasi asosida topshiriq tuzishda bosqichma-bosqich tarzda savollar va ularning javoblari keltiriladi.
4. Taqdimot ishi Power Point dasturida 10-15 sahifadan oshmagan holda tayyorlanadi.
5. Mavzuga oid qo‘sishimcha ma’lumotlar bilan taqdimot ishi boyitiladi.
6. Taqdimot ishini himoya qilish uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi va taqdimotni yoritib, mavzuni to‘liq oolib berish talab etiladi.

Taqdimotda aks etishi lozim bo‘lgan jihatlar:

- matnning boshlang‘ich sinf o‘qish kitobi darsliklaridagi ilmiy-ommabop matnlari orasidan tanlab olinganligi, sahifalari va qismi ko‘rsatilishi;
- matnni to‘liq holatda imloviy va texnik xatolarsiz yozish;
- Blum taksonomiyasining har bir bosqichini yozish va mazkur bosqich uchun savollar hamda ularning javoblarini hozirlash;
- savollarni o‘quvchining tafakkurini o‘stiradigan tartib asosida berish va qabul qilinadigan javoblarni ham taqdim etish;
- mavzu bo‘yicha xulosa.

ESLATMA: muddatidan o‘tgandan so‘ng joylangan topshiriqlar yuqori baholanmaydi. HEMIS platformasiga to‘g‘ri ma’lumotni o‘z vaqtida joylashga TALABA mas‘ul hisoblanadi. So‘ralgan ma’lumot o‘rniga boshqa hujjat joylanganda talaba 0 (nol) ball bilan baholanadi.

TALABAGA ESLATMA:

- 1. Mustaqil ish bu talabaning ma’lum fanni xususiyatlarini o‘rganganligini ko‘rsatuvchi ijodiy ish bo‘lib, shu fanning ma’lum mavzularini qamrab olishi kerak.*
- 2. Talabaning mustaqil ishi uning shaxsiy fikri hamda ijodiy yondashuvini ko‘rsatadi va ko‘chirmachilik (plagiat) holatlari aniqlanganda baholanmaydi.*
- 3. Mustaqil ishni tayyorlash jarayonida talaba ma’lum adabiyotlardan tegishli mavzularini o‘qigan halda real hayotdaggi tahlilini kelitirishi, mavzuga hayotiy misollarni yoritishi talab etiladi.*

TAQDIMOT UCHUN MAVZULAR

T/R	Asar nomi va muallifi	Sinf darslik qismi	Sahifasi
1.	Toshkentdag'i yangi bog'	2/1-qism	17
	Yer yuzining bezagi	2/1-qism	22
2.	Kitobim ostobim (Miraziz A'zam)	2/1-qism	32
	Buyuk ixtirochilar	2/1-qism	64
3.	Ko'zgu qanday paydo bo'lgan	2/1-qism	67
	Boburning ustozlari (To'lqin Hayit)	2/3-qism	45
4.	Tovush (Muzaffar Zayniddinov)	2/1-qism	75
	O'zbek milliy hunarmandchiligi	2/2-qism	5
5.	Sehrli qalam (Turg'unboy G'oyipov)	2/2-qism	14
	Suhrobjon va Mikrojon (Saida Ibodinova)	2/2-qism	34-38
6.	Kassalikni quvamiz (Zulfiya Mo'minova)	2/2-qism	50
	Qishning ko'rpatasi (Dilfuza Shomalikova)	2/2-qism	59
7.	Mirzo Ulug'bek (Abdulla Po'latov)	2/3-qism	39
	Oshxona buyumlari qanday paydo bo'lgan?	2/1-qism	72
8.	Manguga muhrlanganlar yodi (Zahro Hasanova)	2/3-qism	47
	Daraxtlar - tabiat mo'jizasi.	3/3-qism	17

TOPSHIRIQNI BAHOLASH MEZONI

Nº	Baholash mezoni	Qo'yiladigan ball
1.	<p>1. Kreativlik bo'yicha: taqdimot ko'rinishi, mazmuni va tarkibidagi ma'lumotlar fan doirasiga butunlay mos, qiziqarlilik namoyon etgan, bolalar diqqatini o'ziga torta oladi, mazmunan boy.</p> <p>2. Savollarning mazmunini Blum taksonomiyasiga mos ochib berish: prezentatsiya mazmunida Blum taksonomiyasining barcha tafakkur tadriji bosqichlari tartib asosida keltirilgan, savollar taksonomiyaga muvofiq tuzilgan.</p> <p>3. Og'zaki himoya: taqdimotda keltirilgan ma'lumotlarni sodda va ravon tilda, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holatda bayon etish. Savollarga aniq va to'g'ri javob berish.</p>	8-10 balgacha
2.	<p>1. Kreativlik bo'yicha: taqdimot ko'rinishi, mazmuni va tarkibidagi ma'lumotlar fan doirasiga biroz mos, qiziqarlilik namoyon etgan, bolalar diqqatini o'ziga u qadar tortmaydi, mazmunan boy emas.</p> <p>2. Savollarning mazmunini Blum taksonomiyasiga mos ochib berish: prezentatsiya mazmunida Blum taksonomiyasining tafakkur tadriji bosqichlari tartib asosida keltirilgan, savollar taksonomiyaning barcha bosqichiga muvofiq</p>	5-7 balgacha

	emas. 3. Og'zaki himoya: taqdimotda keltirilgan ma'lumotlarni og'zaki izohlashda fikrlarda izchillik sezilmaydi, og'zaki nutq talab darajasida.	
3.	1. Kreativlik bo'yicha: taqdimot ko'rinishi, mazmuni va tarkibidagi ma'lumotlar fan doirasiga mos emas, qiziqarlik namoyon etmagan, bolalar diqqatini o'ziga tortmaydi, mazmunan sayoz. 2. Savollarning mazmunini Blum taksonomiyasiga mos ochib berish: prezентatsiya mazmunida Blum taksonomiyasining tafakkur tadriji bosqichlarining tartibi mayjud emas, savollar taksonomiyaning bosqichlariga muvofiq tuzilmagan. 3. Og'zaki himoya: taqdimotda keltirilgan ma'lumotlarni og'zaki izohlashda fikrlarda izchillik sezilmaydi, og'zaki nutq talab darajasida emas.	1-4 balgacha
4.	Talaba topshiriq bo'yicha ko'chirmakashlikka (plagiat) yo'l qo'ysa, boshqa talaba tomonidan bajarilgan topshiriqni o'zlashtirsa, berilgan topshiriqqa (mavzuga) oid material yuklamasa, topshiriq belgilangan muddatlariga qat'iy amal qilmasa, hamda fan (mavzu) bo'yicha aniq tasavvurga ega emas deb topilsa.	0

2-TOPSHIRIQ – MEDIAKONTENT TAYYORLASH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR

Ushbu topshiriq talabalarda pedagogik mahorat va mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan. Talaba boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida O‘qish yoki Ona tili kabi fanlardan birida ochiq dars o‘tadi va bu ochiq darsni videoformatda tasvirga olib, HEMIS platformasiga yuklaydi. Topshiriqni bajarish davomida mavzuni chuqur anglashi va pedagogik jarayonda bolalarga uni sifatlari va ta’limiy jihatdan kerakli darajada yetkazib berishi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, metodlaridan foydalanishini namoyon qilishi lozim. Undan tashqari, topshiriq talabalarning mediakompetentligini shakllantirish, rivojlantirish va zamonaviy media uskunalarini bilan ishslash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Topshiriq videoli va rasmi videorolik ko‘rinishida tayyorlanadi.

Videorolikda quyidagi jihatlar aks ettirilishi kerak bo‘ladi:

- ochiq dars kalendar reja bo'yicha o'tilayotgan mavzular asosida tashkil etiladi;
- darsning kirish qismi, ustoz va mavzu bilan tanishtiruv;
- darsning asosiy qismi: o'tilgan mavzuni so'rashda qo'llangan metodlar, yangi mavzu bayonida foydalanilgan metodlar, mustahkamlash qismida foydalanilgan metodlarning barchasi alohida ta'kidlanadi;
- darsda foydalaniladigan tarqatma materiallarning mavjudligi va ularning kadrda aks etishi;
- darsda vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi;
- videorolik 5-10 daqiqadan oshmasligi hisobiga darsning faqat kulminatsion nuqtalarini tasvirga olish tavsiya etiladi, boshqa holatlar suratlar ko'rinishida videorolikka qo'shilishi maqsadga muvofiq.

ESLATMA: muddatidan o'tgandan so'ng joylangan topshiriqlar yuqori baholanmaydi. HEMIS platformasiga to'g'ri ma'lumotni o'z vaqtida joylashga TALABA mas'ul hisoblanadi. So'ralgan ma'lumot o'rniga boshqa hujjat joylanganda talaba 0 (nol) ball bilan baholanadi.